Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda fiskal instrumentlardan foydalanish amaliyoti va ularning samaradorligini baholash masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat jamg'armalari, imtiyozli kreditlar, budjet transfertlari hamda maqsadli xarajatlarning sanoat, axborot texnologiyalari, agrosanoat va qurilish tarmoqlariga ta'siri tizimli tahlil qilindi. Fiskal qo'llab-quvvatlash choralari qisqa muddatda ayrim budjet xarajatlarini oshirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, bandlik, investitsion faollik va soliq bazasining kengayishi orqali qaytma iqtisodiy samara berishi asoslandi. Maqolada fiskal instrumentlar samaradorligini baholashda KPI, elektron monitoring, natijaga asoslangan moliyalashtirish va tarmoqlar kesimidagi risk-tahlil yondashuvlaridan foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan yoritildi.

Kalit so'zlar: fiskal instrumentlar; iqtisodiyot tarmoqlari; soliq imtiyozlari; subsidiyalar; davlat budjeti; investitsiya; IT xizmatlari; sanoat; agrosanoat; qurilish; KPI; natijaga asoslangan moliyalashtirish; budjet barqarorligi.

Аннотация. В статье исследованы практические аспекты применения фискальных инструментов в развитии отраслей экономики и вопросы оценки их эффективности. В рамках исследования проведён системный анализ влияния налоговых льгот, субсидий, государственных фондов, льготного кредитования, бюджетных трансфертов и целевых расходов на развитие промышленности, информационных технологий, агропромышленного комплекса и строительной отрасли. Обосновано, что меры фискальной поддержки, несмотря на возможное увеличение отдельных бюджетных расходов в краткосрочной перспективе, в долгосрочном периоде обеспечивают положительный экономический эффект за счёт роста объёмов производства, экспортного потенциала, занятости, инвестиционной активности и расширения налоговой базы. В статье также раскрыта необходимость использования KPI, электронного мониторинга, результативного финансирования и риск-анализа по отраслям при оценке эффективности фискальных инструментов.

Ключевые слова: фискальные инструменты; отрасли экономики; налоговые льготы; субсидии; государственный бюджет; инвестиции; IT-услуги; промышленность; агропромышленный комплекс; строительство; KPI; финансирование, ориентированное на результат; бюджетная устойчивость.

Abstract. This article examines the practical application of fiscal instruments in the development of economic sectors and explores approaches to evaluating their effectiveness. The study provides a systematic analysis of the impact of tax incentives, subsidies, government funds, preferential lending, budget transfers, and targeted expenditures on the industrial, information technology, agro-industrial, and construction sectors. It is substantiated that fiscal support measures, although capable of increasing certain budget expenditures in the short term, generate positive economic returns in the long run through the expansion of production volumes, export potential, employment, investment activity, and the tax base. The article also highlights the importance of applying KPI-based assessment, electronic monitoring, results-based financing, and sector-specific risk analysis in evaluating the effectiveness of fiscal instruments.

Keywords: fiscal instruments; economic sectors; tax incentives; subsidies; state budget; investment; IT services; industry; agro-industrial sector; construction; KPI; results-based financing; fiscal sustainability.

KIRISH

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish hozirgi bosqichda davlatning soliq-budjet siyosati, investitsiya muhiti va institutsional boshqaruv sifati bilan bevosita bog'liq. Sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, qurilish va yuqori texnologiyali sohalarida ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishda fiskal instrumentlar muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunday instrumentlar davlat budjeti xarajatlari, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, budjet transfertlari, imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari va maxsus jamg'armalar orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilayotgan fiskal resurslar hajmi ortib



borayotgan sharoitda ularning real iqtisodiy qaytimini baholash, imtiyoz va subsidiyalarni aniq natijalar bilan bog'lash, budget xarajatlarning samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda. Fiskal qo'llab-quvvatlash faqat mablag' ajratish yoki soliq yukini kamaytirish bilan cheklanib qolmasligi lozim; u ishlab chiqarish samaradorligi, eksport, investitsiyalar, bandlik va soliq bazasining kengayishi kabi natijaviy ko'rsatkichlar bilan o'lanishi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda qo'llanilayotgan fiskal instrumentlarning amaliy samaradorligini tahlil qilish, ularning budget barqarorligi va tarmoq rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asoslash hamda natijaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlarini taklif etishdan iborat. Tadqiqotda IT xizmatlari, sanoat ishlab chiqarishi, agrosanoat, qurilish va davlat budjeti ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq holda o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal siyosatning iqtisodiy o'sish va tarmoqlar rivojiga ta'siri iqtisodiy nazariyada turli maktablar doirasida tadqiq etilgan. J.M. Keynes davlat xarajatlari yalpi talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslagan. R. Musgrave davlat moliyasining taqsimlash, barqarorlashtirish va resurslarni joylashtirish funksiyalarini ajratib ko'rsatib, budget xarajatlari va soliq mexanizmlarini iqtisodiy siyosatning muhim vositasi sifatida baholagan. J. Stiglitz davlatning bozor nomukammalliklarini yumshatishdagi rolini yoritib, ijtimoiy xarajatlari va soliq siyosatining barqarorlikka ta'sirini ta'kidlagan.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda fiskal instrumentlar faqat makroiqtisodiy talabni boshqarish vositasi sifatida emas, balki tarmoqlar tarkibini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va xususiy investitsiyalarni faollashtirish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Xususan, D. Rodrik sanoat siyosati va davlat qo'llab-quvvatlash choralari maqsadli, vaqtinchalik va natijadorlik mezonlariga bog'langan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. H.J. Chang esa rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning selektiv fiskal rag'batlantirish choralari ishlab chiqarish bazasini kengaytirish omili sifatida baholaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda soliq imtiyozlari, davlat budjeti xarajatlari, subsidiyalari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsion faollik va soliq ma'murchiligini raqamlashtirish masalalari keng o'rganilgan. Biroq fiskal instrumentlarning tarmoqlar kesimidagi real natijadorligini kompleks baholash, budget mablag'larining iqtisodiy qaytimini KPI asosida aniqlash hamda subsidiyalarni elektron monitoring tizimlari bilan bog'lash masalalari yanada chuqur ilmiy tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, omillararo bog'liqlikni baholash va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Fiskal instrumentlarning samaradorligi budget daromadlari, budget xarajatlari, asosiy kapitalga investitsiyalar, tarmoqlar ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va bandlikka ta'siri orqali baholandi.

Metodologik jihatdan fiskal qo'llab-quvvatlash choralari uch bosqichda tahlil qilindi: birinchidan, fiskal instrumentlarning tarmoq rivojlanishiga bevosita ta'siri; ikkinchidan, ularning davlat budjeti barqarorligiga qisqa va uzoq muddatli ta'siri; uchinchidan, natijaga asoslangan boshqaruv mexanizmlari orqali budget xarajatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlari. Bu yondashuv soliq imtiyozlari va subsidiyalarni faqat xarajat yoki imtiyoz sifatida emas, balki iqtisodiy qaytinga ega investitsion vosita sifatida baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda fiskal instrumentlar turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. IT xizmatlari va raqamli iqtisodiyotda soliq imtiyozlari, rezidentlik rejimi va eksportga yo'naltirilgan rag'batlar asosiy o'rin tutsa, sanoatda mehnatga oid fiskal yukni kamaytirish, agrosanoatda qayta ishlash va qadoqlash infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash, qurilishda esa kredit foizlarini qisman kompensatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralarning umumiy mohiyati ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirish, investitsiyalarni faollashtirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishdan iborat.

Raqamli xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlar fiskal rag'batlantirishning yuqori texnologiyali tarmoqlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. 2021–2025-yillarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 230 781,0 mlrd so'mdan 818 485,0 mlrd so'mga oshgan. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 11 267,2 mlrd so'mdan 61 505,0 mlrd so'mga yetgan. Bunday o'sish soliq imtiyozlari, IT Park rezidentlari uchun yaratilgan institutsional sharoitlar, eksportga yo'naltirilgan rag'batlar va raqamli infratuzilmaning kengayishi bilan bog'liq (1-jadval).

1-jadval

IT xizmatlari va raqamli sektor rivojlanishida fiskal rag'batlarning natijaviy ko'rsatkichlari¹

Yil	Bozor xizmatlari, mlrd. so'm	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, mlrd. so'm	IT xizmatlar eksporti, mln AQSh doll.
2021	230 781,0	11 267,2	46,0
2022	295 995,0	15 405,4	140,0
2023	515 854,6	22 216,1	344,0
2024	657 399,2	56 174,2	1 000,0
2025	818 485,0	61 505,0	77,0

IT sohasini qo'llab-quvvatlashda qisqa muddatli budjet yuki va uzoq muddatli iqtisodiy qaytim o'rtasidagi nisbat muhim hisoblanadi. Soliq imtiyozlari dastlab ayrim tushumlarni kechiktirishi mumkin, ammo yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar eksporti, yangi ish o'rinlari, jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasining kengayishi va ichki iste'mol hajmining ortishi orqali davlat budjetiga qaytma ta'sir shakllanadi. Shu sababli IT sektoriga beriladigan imtiyozlar eksport ulushi, rezidentlarning hududiy faolligi, yangi ish o'rinlari va xizmatlar eksporti kabi KPI ko'rsatkichlari bilan bog'lanishi maqsadga muvofiq.

Sanoat tarmoqlarida fiskal instrumentlarning samaradorligi asosan ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi va korxonalar raqobatbardoshligi orqali namoyon bo'ladi. Mehnat sig'imi yuqori bo'lgan sanoat korxonalarida ish beruvchi zimmasidagi fiskal yukning pasaytirilishi ish haqi fondiga tushadigan bosimni yumshatadi, mahsulot tannarxini kamaytiradi va korxonalarda aylanma mablag'larning saqlanishiga yordam beradi. Biroq bunday imtiyozlar umumiy tarzda emas, balki yangi ish o'rinlari yaratish, mahsulot hajmi, eksport shartnomalari va rasmiy bandlik ko'rsatkichlari bilan bog'langan holda qo'llanishi lozim.

Agrosanoat majmuasida fiskal qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishi xomashyoni chuqur qayta ishlash, sovitish, saqlash, saralash va zamonaviy qadoqlash infratuzilmasini kengaytirishdan iborat. Bu tarmoqda subsidiyalar mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish, eksportga tayyor mahsulotlar ulushini oshirish va qishloq hududlarida bandlikni kengaytirish bilan bevosita bog'lanishi zarur. Aks holda davlat mablag'lari ishlab chiqarish zanjirining faqat ayrim bosqichlarida sarflanib, yakuniy qo'shilgan qiymat yetarli darajada shakllanmasligi mumkin (2-jadval).

2-jadval

Tarmoqlar kesimida fiskal instrumentlar va ularning iqtisodiy natijalari²

Tarmoq	Qo'llaniladigan fiskal instrument	Baholash mezon	Kutilayotgan iqtisodiy natija
IT xizmatlari	Soliq imtiyozlari, IT Park rezidentligi, eksport rag'batlari	Eksport hajmi, yangi rezidentlar, yuqori qo'shilgan qiymat	Raqamli xizmatlar eksporti va soliq bazasi kengayadi
Sanoat	Mehnat yukini pasaytirish, maqsadli soliq yengilligi	Tannarx, rasmiy bandlik, ishlab chiqarish hajmi	Raqobatbardoshlik va mahsulot hajmi oshadi
Agrosanoat	Subsidiyalar, sovitish va qadoqlash infratuzilmasi	Saqlash quvvati, qayta ishlash ulushi, eksport	Mahsulot yo'qotishi kamayadi, eksportbop mahsulot ortadi
Qurilish	Foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish, investitsion qo'llab-quvvatlash	Investitsiya hajmi, qurilish ishlari, mahalliy lashtirish	Loyihalar tezlashadi, qurilish materiallari ishlab chiqarish kengayadi

Qurilish tarmog'ida fiskal qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlar bilan bevosita bog'liq. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sishi qurilish ishlari hajmini kengaytiradi, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari uchun kredit foizlarini qisman kompensatsiya qilish esa yangi quvvatlarni ishga tushirish va modernizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Bunda budjet mablag'lari aniq loyiha natijasi, ishlab chiqarish quvvati, mahalliy lashtirish darajasi va soliq tushumlari bilan bog'langan holda ajratilishi zarur.

1 Manba: muallif tomonidan statistik va tahliliy materiallar asosida tuzilgan.

2 Manba: muallif tomonidan tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan.



Davlat budjeti daromadlari, xarajatlari va asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi fiskal instrumentlardan foydalanish ko'lamini ortib borayotganini ko'rsatadi. 2021-yilda budjet daromadlari 164,8 trln so'm, xarajatlari 188,6 trln so'm va investitsiyalar 236,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 308,5 trln so'm, 431,0 trln so'm va 591,1 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Bu jarayon davlat moliyaviy resurslarining iqtisodiyot tarmoqlariga faol yo'naltirilayotganini, shu bilan birga xarajatlari samaradorligini baholash talabining kuchayayotganini anglatadi.

Fiskal instrumentlar samaradorligini baholashda eng muhim masala ularning natijadorlik mezonlarini aniq belgilashdir. Soliq imtiyozlari ko'pincha ishlab chiqarish hajmi yoki eksport natijalari bilan yetarli darajada bog'lanmagan, ular budjet uchun samarasiz xarajatga aylanishi mumkin. Subsidiyalar esa manzillilik darajasi past bo'lgan hollarda real sektor samaradorligini oshirish o'rniga joriy xarajatlarni qoplash vositasiga aylanib qoladi. Shu sababli har bir fiskal instrument bo'yicha natija ko'rsatkichi, monitoring mexanizmi va budjet qaytimi oldindan belgilanishi zarur.

Tahlil natijalari fiskal instrumentlarni samarali boshqarish uchun uchta asosiy shartni ko'rsatadi. Birinchidan, instrumentlar tarmoqning real muammosiga mos bo'lishi kerak: IT sohasida eksport va kadrlar, sanoatda tannarx va mehnat yuki, agrosanoatda saqlash-qayta ishlash infratuzilmasi, qurilishda kredit xarajatlari. Ikkinchidan, har bir instrument vaqtinchalik, maqsadli va natijaga bog'langan bo'lishi zarur. Uchinchidan, imtiyoz, subsidiya yoki budjet transfertining samaradorligi elektron platformalar orqali muntazam monitoring qilinishi lozim (3-jadval).

3-jadval

Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va budjet xarajatlari samaradorligini baholash modeli³

Fiskal instrument	Amaldagi muammo	Taklif etilayotgan baholash mexanizmi	Kutilayotgan samara
Soliq imtiyozlari	Natijadorlik yetarlicha baholanmaydi	KPI asosida baholash va elektron monitoring	Samarasiz imtiyozlar qisqaradi, soliq bazasi kengayadi
Subsidiyalar	Manzillilik darajasi ayrim holatda past	Subsidiyani tarmoq natijalari bilan bog'lash	Davlat mablag'larining iqtisodiy qaytimi oshadi
Davlat jamg'armalari	Hisobdorlik va shaffoflik cheklangan	Raqamli platforma orqali nazorat	Manzilli moliyalashtirish kuchayadi
Imtiyozli kreditlar	Mablag' samaradorligi past baholanadi	Natijaga bog'langan moliyalashtirish	Yangi ish o'rinlari va eksport oshadi
Budjet transfertlari	Hududiy samaradorlik turlicha	Hududiy KPI tizimini joriy qilish	Hududlararo iqtisodiy mutanosiblik yaxshilanadi

Natijaga asoslangan fiskal boshqaruv modelining amaliy afzalligi shundaki, u davlat resurslarini passiv qo'llab-quvvatlashdan faol iqtisodiy rivojlantirish vositasiga aylantiradi. Masalan, soliq imtiyozi faqat mahsulot hajmi, eksport yoki yangi ish o'rinlari bilan bog'langanda korxona imtiyozdan foydalanish evaziga aniq iqtisodiy majburiyatni bajaradi. Xuddi shuningdek, subsidiya sovitish quvvati, mahsulot yo'qotishining kamayishi yoki qayta ishlash ulushi kabi ko'rsatkichlar bilan bog'langanda uning budjet qaytimini o'lchash imkoniyati paydo bo'ladi.

Fiskal instrumentlarning samaradorligi ularning o'zaro uyg'un qo'llanishi bilan ham belgilanadi. Soliq imtiyozi investitsion kredit bilan, subsidiya infratuzilma loyihasi bilan, davlat jamg'armasi esa elektron monitoring tizimi bilan bog'langanda kompleks iqtisodiy natija yuzaga keladi. Aksincha, ushbu instrumentlar alohida-alohida va baholash mezonlarisiz qo'llansa, budjet xarajatlari ortishi, soliq bazasi torayishi va resurslardan foydalanish samaradorligi pasayishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, fiskal instrumentlarni baholashda faqat ajratilgan mablag' hajmi emas, balki ushbu mablag' hisobiga yaratilgan iqtisodiy natija asosiy mezon bo'lishi kerak. Bunday natijalar qatoriga ishlab chiqarish hajmining oshishi, eksport tushumlari, qo'shilgan qiymat ulushi, rasmiy bandlik, soliq tushumlarining ko'payishi, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi va hududiy investitsion faollik kiradi.

Fiskal instrumentlar samaradorligini oshirish uchun ularni tarmoqlar kesimida yagona metodologiya asosida baholash muhimdir. Bunda har bir imtiyoz, subsidiya yoki budjet xarajati moliyaviy resurs sifatida emas, balki ma'lum iqtisodiy natijani shakllantiruvchi boshqaruv vositasi sifatida ko'rilishi zarur. Masalan, IT sohasi uchun fiskal rag'batlar eksport tushumlari, yangi rezidentlar, yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar va malakali ish o'rinlari bilan baholansa, sanoat tarmoqlari uchun mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish hajmi, rasmiy bandlik va eksport shartnomalari asosiy mezon bo'lishi kerak.

Agrosanoat tarmog'ida natijadorlikni baholashda mahsulotni saqlash quvvati, qayta ishlash darajasi, sovitish infratuzilmasi, qadoqlash sifati va eksportga tayyor mahsulot ulushi asosiy ko'rsatkich sifatida qabul

3 Manba: muallif tomonidan baholash modeli asosida ishlab chiqilgan.

qilinadi. Chunki mazkur tarmoqda qo'llaniladigan subsidiyalar faqat xarajatni qoplash emas, balki xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish, mavsumiy yo'qotishlarni kamaytirish va qishloq hududlarida qo'shimcha daromad manbalarini yaratish vazifasini bajarishi lozim.

Qurilish va qurilish materiallari sanoatida kredit foizlarini kompensatsiya qilish, davlat kafolatlari va investitsion rag'batlar loyiha quvvati, yangi ishlab chiqarish liniyalari, mahalliy xomashyo ulushi va ichki bozorni ta'minlash darajasi bilan bog'lanishi kerak. Agar kompensatsiya mexanizmi faqat kredit yukini kamaytirishga xizmat qilsa, uning iqtisodiy qaytimi cheklangan bo'ladi. Aksincha, u yangi quvvat, yangi ish o'rni va soliq tushumi bilan bog'lansa, budjet mablag'lari real sektor rivojiga xizmat qiladi.

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovutning ortib borishi fiskal instrumentlarni baholashda ehtiyotkor yondashuvni talab qiladi. Budjet xarajatlarning ko'payishi o'z-o'zidan ijobiy natija bermaydi; u tarmoqlar bo'yicha qo'shimcha mahsulot, xizmat, eksport yoki soliq bazasi yaratgandagina samarali hisoblanadi. Shu sababli har bir fiskal instrumentning "xarajat – natija – qaytim" zanjiri shakllantirilishi lozim.

Mazkur yondashuvda elektron monitoring alohida ahamiyatga ega. Soliq organlari, moliya organlari, statistika tizimi, tijorat banklari va tarmoqlar bo'yicha mas'ul tashkilotlar ma'lumotlari integratsiya qilinganda har bir qo'llab-quvvatlash chorasi bo'yicha real natijani kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday tizim imtiyozdan foydalangan subyektning investitsiya majburiyati, ishlab chiqarish hajmi, soliq to'lovlari, eksport shartnomalari va bandlik ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi.

Natijaga asoslangan fiskal boshqaruvning yana bir ustunligi shundaki, u samarasiz imtiyozlarni bosqichma-bosqich qisqartirish va yuqori iqtisodiy qaytim berayotgan tarmoqlarni ustuvor qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Bu budjet intizomini kuchaytiradi, davlat mablag'laridan foydalanish shaffofligini oshiradi va iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini sog'lomlashtiradi.

Tarmoqlar kesimida fiskal instrumentlarni baholashda sifat ko'rsatkichlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Masalan, faqat mahsulot hajmi emas, balki mahsulotning texnologik darajasi, eksport geografiyasi, energiya samaradorligi, xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasi va innovatsion komponenti ham hisobga olinishi zarur. Chunki zamonaviy iqtisodiy sharoitda fiskal qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi miqdoriy o'sish bilangina cheklanmay, tarmoqlar raqobatbardoshligini sifat jihatdan oshirishdan iborat.

Fiskal instrumentlarning amaliy samaradorligini baholashda tarmoq strategiyasi, budjet imkoniyatlari va xususiy sektor manfaatlari o'rtasida muvozanat bo'lishi lozim. Davlat tomonidan beriladigan har qanday imtiyoz yoki subsidiya tadbirkorlik subyektini passiv qo'llab-quvvatlash emas, balki uni investitsiya kiritish, ishlab chiqarishni kengaytirish, eksportga chiqish va soliq intizomini kuchaytirishga undovchi mexanizm sifatida ishlashi kerak.

Fiskal instrumentlarni baholashning yakuniy bosqichi tahliliy xulosa va qayta taqsimlash qarorlaridan iborat bo'lishi kerak. Ya'ni natijasi past bo'lgan imtiyoz yoki subsidiya avtomatik tarzda uzaytirilmasligi, yuqori samaradorlik ko'rsatgan instrumentlar esa tarmoq strategiyasiga mos holda kengaytirilishi lozim. Bu yondashuv davlatning iqtisodiy siyosatini maqsadli, shaffof va hisobdor qilish bilan birga, tadbirkorlik subyektlarini ham aniq natijaga intilishga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil fiskal instrumentlar iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda muhim amaliy mexanizm ekanligini ko'rsatadi. IT xizmatlari, sanoat, agrosanoat va qurilish tarmoqlarida soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va budjet xarajatlari tarmoq xususiyatlariga mos ravishda qo'llanganda ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, investitsion faollik va bandlikni oshirish imkonini beradi. Biroq bunday qo'llab-quvvatlash choralari natijadorlik mezonlarisiz amalga oshirilsa, budjetga ortiqcha yuk tushishi va samaradorlikning pasayishi xavfi yuzaga keladi.

Fiskal instrumentlar samaradorligini oshirish uchun birinchidan, soliq imtiyozlarini eksport, yangi ish o'rinlari, yuqori qo'shilgan qiymat va investitsiya hajmi kabi KPI ko'rsatkichlari bilan bog'lash; ikkinchidan, subsidiyalarni aniq tarmoq natijalari va mahsulot yo'qotishini kamaytirish mezonlari asosida ajratish; uchinchidan, davlat jamg'armalari va budjet transfertlarini raqamli monitoring platformalari orqali nazorat qilish; to'rtinchidan, imtiyozli kreditlarni loyiha natijadorligi, qayta ishlash quvvati va soliq tushumlari bilan bog'lash zarur.

Umuman, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda fiskal instrumentlardan samarali foydalanish davlatning moliyaviy imkoniyatlarini ishlab chiqarish, eksport, investitsiya va bandlik kabi real iqtisodiy natijalar bilan bog'lashni talab etadi. Natijaga asoslangan fiskal boshqaruv modeli budjet xarajatlarning shaffofligini oshiradi, samarasiz imtiyozlarni qisqartiradi, soliq bazasini kengaytiradi va iqtisodiyot tarmoqlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
2. Musgrave R.A. *The Theory of Public Finance*. – New York: McGraw-Hill, 1959.
3. Stiglitz J.E. *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton, 1986.
4. Rodrik D. *Industrial Policy for the Twenty-First Century*. – Harvard University Press, 2004.
5. Chang H.J. *Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective*. – London: Anthem Press, 2002.
6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ–599-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4674011>
7. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ–360-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-2302187>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100